

## O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Abduraximova Dilora Karimovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, DSc

email: [abdurahimovadilora10@gmail.com](mailto:abdurahimovadilora10@gmail.com)

**Qurbanqulova Nazokat Qutbiddinovna**

BMA Mustaqil tadqiqotchisi

email: [nazokat-86@mail.ru](mailto:nazokat-86@mail.ru)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 10

DOI:[https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1\\_iss10/a1](https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss10/a1)

### ABSTRACT

So'nggi yigirma yil ichida sug'urta bozorlari tubdan va chucher o'zgardi. Deregulyatsiya, sug'urta institutlarining globallashuvi, raqobatning kuchayishi, elektron tijorat, bank sug'urtasi va yangi risklarning paydo bo'lishi sug'urta bozorlarini o'zgartirib yubordi. Ushbu maqolada O'zbekiston va Qozog'iston sug'urta bozorlariga ta'sir qiluvchi global o'zgarishlar va mahalliy omillar ko'rib chiqildi va o'zaro taqqoslama tahlil amalga oshiriladi. Shuningdek, maqolada sug'urta bozorlari moliyaviy texnologiyalarining keng joriy etilayotganliklari avzallikkari va salbiy ta'siri ham o'rjaniladi.

### KEYWORDS

Sug'urta bozori, sug'urta xizmatlari, moliya texnologiya-lari, inshurtex, masofadan sug'urta xizmatlari, raqamli sug'urta bozori infrastrukturasi.

### Kirish (Introduction/Введение)

Bugungi kunda turli mamlakatlarda, xoh rivojlangan, xoh rivojlanayotgan ularning iqtisodiyoti ko'p jihatdan xavf-xatarlarga duxor bo'lib, mazkur xatarlar keltilishi mumkin bo'lgan katta iqtisodiy yo'qotishlarni sug'ortalash ahamiyati tobora kattalashib bormoqda. Jamiyat sug'urtadan tabiiy ofatlar, ishlab chiqarishdagi avariyalari va halokatlarining iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish muammolarini hal etishda, kutilmagan noxush hodisalar yuz berganda yuridik va jismoni shaxslarning manfaatlarini ta'minlashda foydalaniishi zarur. Sug'urta mexanizmining o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat korxonalar va fuqarolarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish, balki davlatning ko'plab makroiqtisodiy muammolarini ham hal etishiga qodir.

Ayniqsa, asrimizning so'nggi dekadasida ro'y berayotgan tabiiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ta'sirida mamlakatlar iqtisodiyoti nobarqaror rivojlanayotgan bir paytda iqtisodiyotning turli ishtirokchilariga xayriyohlik ko'rsatish va zaif qatlamlarini himoyalashda sug'urta bozorlari muhim o'rinn egallamoqda.

Shu sababli O'zbekistonda sug'urta bozorini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yilning 1 martida "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-soni qarori qabul qilindi [1]. Mazkur qarorga asosan, milliy sug'urta bozorini yanada rivojlantirish va jahon moliya bozoridagi asosiy tendentssiyaga aylangan raqamlashtirish jarayonlarini milliy sug'urta xizmatlari bozorida ham keng joriy qilishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu qarorga asosan, sug'urta kompaniyalar moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash maqsadida, minimal ustav kapitaliga bo'lgan talablarini bosqichma-bosqich 2030 yilga qadar oshirib borish ko'zda tutilmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoit progressiv tendentsiyalar va xalqaro standartlar talablarini hisobga olgan holda sug'urta bozorining yanada rivojlanishini ta'minlaydigan yaxlit sug'urta tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Bu sug'urta bozorining rivojlanish istiqbollarini o'rjanish, uni rivojlantirish bo'yicha yo'riqnomalarni to'g'ri tanlash va ma'lum o'sish salohiyatini o'rjanish zarurligini belgilaydi.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review/Литературный обзор)

Sug'urta xizmatlari bozori iqtisodiyotning rivojlanishida yuqori ahamiyat kasb qiluvchi bozor bo'lganligi sababli, mazkur bozorni o'rjanishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar mavjud.

K.Makkonnell va S.Bryu tomonidan bozorning klassik ta'rifiga asoslanib, sug'urta bozori sug'urta xizmatlariga nisbatan sug'urtalovchilar va sug'urtalanuvchilarining manfaatlarini bog'laydigan iqtisodiy mexanizm ekanligi ko'rsatilgan [2]. Mazkur ta'rifda mualliflar sug'urta bozorining har qanday bozor sifatida sotuvchi va xaridor (bu erda: sug'urtalovchilar va sug'urtalanuvchilar) iqtisodiy munosabatlari shakllanadigan mexaiizm sifatida qaralmoqda.

R.T. Yo'ldoshevning fikricha: "sug'urta bozori - bu sug'urta himoyasiga bo'lgan davlat ehtiyojlarini qondirish jarayonida sug'urta polusini sotib olish va sotish bilan bog'liq yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlari tizimi" [3]. Muallif bunda savdo ob'ektni (sug'urta polisi) aniqlashtirgan bo'lsa-da, ammo bozorga ehtiyojmand asosiy davlat ishtirokiga alohida urg'u bermoqda.

V.V. Shaxovning so'zlariga ko'ra, sug'urta bozori - bu alohida ijtimoiy-iqtisodiy muhit, iqtisodiy munosabatlarning ma'lum bir sohasi bo'lib, bu erda oldi-sotdi ob'ekti sug'urta himoyasi bo'lib, unga talab va taklif shakllanadi [6]. Bunda iqtisodchi sug'urta kompaniyalarini sug'urta bozorining asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etadi.


Sug'urta bozori - bu faoliyat xarajatlarini kamaytirish, sug'urta xizmatlarini yaratish, sotib olish, sotish va iste'mol qilish bo'yicha bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tizimlashtirish uchun turli institutlar va ularning tegishli mexanizmlari to'plami (infrastruktura) sifatida qaraydi [4]. Bunda iqtisodiy agentlar deganda sug'urtalovchilar, sug'urtalovchilar va sug'urta bozori infratuzilmasi vakillari tushuniladi.

Yuqorida keltirilgan so'nggi ikkita ta'rifda sug'urta bozori infratuzilmasi, undagi ishtirokchilar va sug'urta kompaniyalar ishtirokiga alohida urg'u berilmoqda.

Sug'urta bozorining tuzilishi - bu sug'urta bozorining turli institutlari, sub'ektlari (sug'urta kompaniyalar) va ob'ektlari (sug'urta turlari va

texnologiyalari) o'rtasidagi sug'urta jarayoni bilan bog'liq holda yuzaga keladigan va qayta ishlab chiqariladigan munosabatlardir[5].

Sug'urta bozori tuzilishi, xususan undagi ishtirokchilar tarkibini vizual sxema orqali shakllantirish foydali (1-rasmga qarang).



1-rasm. Sug'urta bozori tuzulmasi

Sug'urta faoliyati sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning xususiyatiga ko'ra o'ziga xosdir. 1-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu bozorning professional ishtirokchilar ularning maxsus faoliyat teriga ko'ra guruhlashtiriladi. Ularning faoliyati tor doirani anglatsada, ulardan chuquq bilim va ko'nikmalarni talab etadi.

Ammo risklarni sug'urtalashdagi inson xatolari juda qimmatga tushushi mumkin. Shu sababli ushbu sohaga moliyaviy texnologiyalarning kirib kelayotganligi undagi xizmatlar sifatining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Ammo bugungi kunda sug'urta bozorida moliyaviy texnologiyalarni qo'llagan holda sug'urta xizmatlarini ko'rsatish "inshurtex" deya nomlanmoqda.

Inshurtex (inglizcha InsurTech – Insure technology) sug'urta bilan bog'liq yangi texnologiyalar to'plamidir. Inshurtex kompaniyalari katta ma'lumotlar, mashinalarni o'rganish, IoT yordamida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Sug'urta bozori ishtirokchilarining iqtisodiy xulq-atvori nafaqat iqtisodiy qonunlar va ob'ektiv omillarga, balki sodir bo'layotgan hodisalar, rivojlanishining ijtimoiy qonuniyatlariga ham bo'ysunadi [3]. Ya'ni moliyaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi va ularni barcha sohalarga xususan, sug'urta xizmatlari bozoriga kirib kelishi, ushbu bozorini tubdan o'zgartirishga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi vaqtida sug'urta sohasida sug'urta texnologiyalarining o'sishini rag'bataltiradigan 3 ta asosiy texnologiyalardan foydalilmoxqda:

1. Big Data – katta ma'lumotlar orqali ma'lumotlarni yihish va tahlil qilishga qaratilgan texnologiya. Masalan, The Floow - bu katta ma'lumotlar texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan sug'urta kompaniyasi. U telefonlar va avtomobillardagi qora qutilardan ma'lumotlarni to'playdi. Kompanianing asosiy maqsadlari sug'urta da'volarining to'g'riligini oshirish va baxtsiz hodisa ehtimolini kamaytirishdir.

2. Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish. Sun'iy intellektga sarmoya kiritayotgan sug'urta kompaniyalarining muvaffaqiyatli namunasasi - American International Group. Ular Human Condition Safetyga sarmoya kiritganlar.

3. Narsalar interneti (IoT). Bu iste'molchi xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni kuzatishga yordam beradi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanim, turli narxlash modellarini ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, qurilmalardan ko'proq ma'lumot to'plash va uning asosida yangi, yanada ilg'or mahsulot yaratish mumkin. Bundan tashqari, narsalar Interneti ko'pgina muntazam jarayonlarni avtomatlashtirishga yordam beradi. Masalan, Cozify Finlyandiya kompaniyasi bo'lib, uyni avtomatlashtirish tizimlari uchun o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatadi. 2017 yilda ular LocalTapiola bilan hamkorlikda Skandinaviyada birinchisi Smart Home Insurance (aqilli uy sug'urtasi)ni ishga tushirishdi. Loyihaning maqsadi - uy-joyni himoya qilish tizimini sug'urta bilan birlashtirish. Aytaylik, suv bosishi, yong'in sodir bo'lishi yoki uyga bosqinchilarning kirishi sodir bo'lgan taqqirda, aqilli uy sug'urtachilarini kutish o'miga, odamga vaziyatni hal qilish uchun tashabbus ko'rsatishga imkon beradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish yaqin besh yil ichida sug'urta bozoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Inshurtex sug'urta hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida, masalan, mijozlarni maqsadli belgilash, narxlarini belgilash, mahsulotni ishlab chiqish, da'volarni qayta ishlash kabi ma'lumotlarni olish uchun ishlatiladi [7]. Masalan, telematika avtomobilni sug'urtalashda tobora ko'proq foydalanila boshlandi, sug'urtalangan shaxsning avtomobiliga maxsus sensorlar o'rnatilgan bo'lib, ular avtomobilning ishlash xususiyatlarini aniqlash va individual tarifni hisoblash imkonini beradi.

#### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar(Methods/Metodi)

Maqolada ilmiy abstraktsiyalash, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlashdirish, dinamik tahlil va qiyoslash usullaridan foydalanilgan. Maqolada Istiqbolli loyiham agentligi, Qozog'iston Respublikasi Moliya bozorini nazorat qilish va rivojlanirish agentligi rasmiy ma'lumotlari va statistik ma'lumotlari hamda tadqiqotlari natijasida tahlil amalga oshirildi.

#### Tahlillar (Analysis/Analiz)


O'zbekistonda sug'urta moliya bozorining faol segmentlaridan biri hisoblanadi. Unda 37ta sug'urta kompaniyasi mavjud.

1-jadval

O'zbekiston sug'urta bozori strukturasi tahlii

Sug'urta bozori strukturasi	31.03.2023	31.03.2024	Change, %
Sug'urta kompaniyalari soni	42	37	-9,8%
Jumladan xayot sug'urtasi kompaniyalari	8	6	-25%
Sug'urta kompaniyalari umumiy ustav kapitali	1 957 861	2 327 357	+18,9%
Sug'urta brokerlar soni	7	9	+28,6%
Aktuariylar soni	5	5	0%
Sug'urta agentlar soni	5 518	4 411	-20,1%
Jumladan yuridik shaxslar	1767	1 660	-6,1%
To'lovlarini kafolatlash fondi a'zolari soni	25	25	0%


1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadi, 2024 yil 31 mart holatiga 37ta sug'urta kompaniyasi bo'lib o'tgan yilning ushbu davriga ularning soni 5taga yoki deyarli 10 foizga kamaygan. Jumladan xayot sug'urtasi kompaniyalarning soni ushbu davrda 25%ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu davrda sug'urta agentlarining soni xam umumiyligi 20 foizga kamaygan. Ammo, shu orinda ta'kidlash joizki, InsurTech rivojlanishi moddiy sug'urta infrastrukturasini qisqartirishi va raqamli infrastrukturani rivojlanishiga olib keladi [9].



2-rasm. Sug'urta kompaniyalarining va ularning to'lovlarini kafolatlash fondiga a'zolari soni

2-rasmida keltirilgan ma'lumotlар shuni ko'rsatmoqdaki, 2024 yil martda va 2023 yilning ushbu oraliqiga nisbatan sug'urta kompaniyalar soni 4taga kamaygan. Ammo ushbu oraliqda To'lovlarini kafolatlash fondi a'zo bo'lgan sug'urta kompaniyalar soni kamaymagan [9].

Taqqoslash uchun Qozog'istonda 2024 yil fevral oyida sug'urta kompaniyalari soni 25ta bo'lib, ularning 24tasi To'lovlarini kafolatlash fondi a'zosidir (3-rasm). Ushbu ko'rsatkichlarni O'zbekiston sug'urta kompaniyalari qo'rsatkichlariha taqqoslansa, Qozog'iston sug'urta kompaniyalarining 96 foizi To'lovlarini kafolatlash fondi a'zosi bo'lsa, O'zbekistonda 67,6 foizini tashkil etadi [10].



3-rasm. Qozog'istonda sug'urta kompaniyalari soni

Shuningdek, milliy sug'urta kompaniyalar investitsiya portfelini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning asosiy qismini bank depozitlari tashkil qilmoqda. Jumladan, 2024 yil 31 mart holatiga jami investitsiya portfelining 66,35 foizini depozitlar tashkil qilib, bu ko'rsatkich o'tgan

yilning ushbu davriga nisbatan 39,43 foizga o'sgan. Keyingi o'rinda qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar egallab, hisobot davrida o'tgan yilga nisbatan o'sgan bo'lsa-da, investitsiyadagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6 foizdan ziyodga kamaymoqda (2-jadval) [10].

Shuningdek, ko'chmas mulkka kiritilgan investitsiyalar ham yirik

**2-jadval**

**O'zbekistondagi sug'urta tashkilotlarining jami investitsiyalari**

1. Ko'rsatkichlar	31.03.2023		31.03.2024		Farqi. Foizda
	mln.so'm	Foizda	mln.so'm	Foizda	
Jami investitsiyalar	4 798 215	100	6 078 651	100	26,69
Deozitlar	2 892 759	60,29	4 033 417	66,35	39,43
Qimmatli qog'ozlar	1 308 397	27,27	1 321 485	21,74	1,00
Zaymlar	56 156	1,17	47 944	0,79	-14,62
Ko'chmas mulk	394 459	8,22	578 920	9,52	46,76
Korxonalar UK ishtiroki	119 813	2,50	88 138	1,45	-26,44
Boshqalar	26 631	0,6	8 746	0,144	-67,16

ulushni egallamoqda. Hisobot davrida ularning portfeldagi ulushi 9,52 foizni tashkil qilsa, ularning umumiy summasi o'tgan yilining mos davriga nisbatan deyarli 47 foizga o'sgan. Ammo, korxonalarning ustak kapitaliga (UK) kiritilgan investitsiyalar ulushi kamayish dinamikasiga ega, hisobot davrida uning investitsiya portfelidagi ulushi 1,45 foizni tashkil qilib, o'tgan yilningning mos davriga nisbatan 26,44 foizga kamaygan [9].

Bugungi kunda deyarli barcha milliy va Qozog'iston sug'urta kompaniyalari tomonidan ularning rasmiy saytlari orqali masofadan xizmatlarni amalga oshirish taklif etilmoqda.

Maskur masala sug'urta bozorini rivojlantirishning asosiy omillarimidan bir bo'lganligi sababli, O'zbekistonda raqamli sug'urta bozori infrastrukturasi va xizmatlar bozorini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmuoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024 yildagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-108-sonli qororiga asosan zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali sug'urta xizmatlarining ommabopligini va sifatini oshirish maqsadida, 2024 yil 1 sentyabrdan boshlab sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tkazish va sug'urta polislari ushbu tizim orqali rasmiylashtirish ko'zda tutilmoqda. Mazkur qarorning qabul qilinganligi mamlakatimizda raqamli sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishiga va raqobat muhitni sababli xizmatlarning arzon va sifatlari bo'lishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

**Xulosa (Conclusions/Заключения).** Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sug'urta bozori - bu faoliyat xarakatlarini kamaytirish, sug'urta xizmatlarni yaratish, sotib olish, sotish va iste'mol qilish bo'yicha bozor

ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tizimlashtirish uchun turli institutlar va ularning tegishli mexanizmlari to'plami (infrastruktura) sifatida qaraydi. Bunda iqtisodiy agentlar deganda sug'urtalovchilar, sug'urtalovchilar va sug'urta bozori infratuzilmasi vakillari tushuniladi.

2. Sug'urta bozori ishtirokchilarining iqtisodiy xulq-atvori nafaqat iqtisodiy qonunlar va ob'ektiv omillarga, balki sodir bo'layotgan hodisalar, rivojlanishining ijtimoiy qonuniyatlariga ham bo'ysunadi. Ya'ni moliyaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi va ularni barcha sohalarga xususan, sug'urta xizmatlari bozoriga kirib kelishi, ushbu bozorini tubdan o'zgartirishga sabab bo'lmoqda.

3. Zamonaviy raqamli texnologiyalarini joriy etish yaqin besh yil ichida sug'urta bozoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Inshurtex sug'urta hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida, masalan, mijozlarni maqsadli belgilash, narxlarni belgilash, mahsulotni ishlab chiqish, da'volarni qayta ishslash kabi ma'lumotlarni olish uchun ishlataladi.

4. O'zbekistonda sug'urta bozori moliya bozorining faol segmentlaridan biri hisoblanadi. Ammo, so'nggi yillarda milliy sug'urta bozori rivojlanishida sustlashuv va pasayish dinamikasini kuzatish mumkin. Shu sababli bozorni rivojlantirish uchun xukumat tashabbusligida sug'urta bozorini raqamlashtirishga alohida e'tibor qartilmoqda.

5. Qozog'iston va O'zbekiston sug'urta bozorlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, i) moddiy sug'urta bozori infrastrukturasi qo'shni Qozog'istondagidan hajmi jihatidan kengroq bo'lsa-da, qo'shni mamlakat sug'urta kompaniyalari ishonchliroq, ularning deyarli barchashi to'lovlar qaytrilishini kafolatlaydigan fond a'zosi, ii) qo'shni mamlakat sug'urta bozorida xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan xizmatlar kengroq; iii) sug'urta kompaniyalarining asosiy investitsiya portfeli diversifikatsiya darajasi yuqori bo'lganligi risklar boshqaruviiga alohida e'tiborni anglatadi, shuningdek, fond bozorining rivojlanganligi sababli investitsiyalarining asosiy qismi qimmatli qog'ozlarga kiritilgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda O'zbekistonda sug'urta bozorini yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar berilmoqda:

1. Sug'urta bozori rivojlanishi uchun sof raqobat muhitini yaratish, bunda halqaro va xorijiy kompaniyalarining mamlakatimizda filial va bo'linmalarini ochishga imkon berish;

2. Sug'urta kompaniyalar kapitalizatsiyasini oshirish, xususan, davlat ulushi yuqori sug'urta kompaniyalarida IPO o'tkazish amaliyotlarini yanada kengaytirish;

3. Sug'urta kompaniyalarining barchasiga to'lovlarini kafolatlash fondiga a'zoligini ta'minlash;

4. Faqat raqamli sug'urta xizmatlariga ihtiisoslashtirilgan startaplarni optimal moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish va ularni boshlang 'ich 3 yil davomida soliqlardan imtiyozlar berish orqali qo'llab quvvatlash.

**Foydalilanigan adabiyotlar(References/Литературы).**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024 yildagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-108-sonli qarori
2. Кэмбелл Р. Макконнелл, Стэнли Л. Брю. Экономикс: принципы, проблемы и политика //М.: Республика. – 1992. – Т. 50.
3. Мазаева М. В. Экономическое поведение участников страхового рынка: социологический подход к изучению //Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. – 2011. – №. 1 (101). – С. 44-51.
4. Окорокова О. А. Страховой рынок: тенденции и перспективы развития //Terra Economicus. – 2011. – Т. 9. – №. 3-2. – С. 74-78.
5. Русецкая Э.А. Тенденции и перспективы развития страхового рынка в Российской Федерации // Финансы и кредит. 2011. № 11
6. Страхование: учебник / Под ред. В.В. Шахова. М.: ЮНИТИ, Страховой полис, 1997.
7. Шалбузова З. Н. Влияние иншуртеха на развитие страховой отрасли //Вектор экономики. – 2019. – №. 12. – С. 110-110.
8. Юлдашев Р. Т. Страховой бизнес : Словарь - справ. / Р.Т. Юлдашев. - Москва : Анкил, 2000. – 264.
9. O'zbekiston Respublikasi Istiqlolli loyiylar agentligi [www.napp.uz](http://www.napp.uz)
10. Qozog'iston Respublikasi Moliya bozorini nazorat qilish va rivojlantirish agentligi <https://www.gov.kz/memleket/entities/ardfm?lang=kk>

..